



2023- yil yanvar-iyun oylari uchun
dastlabki ma'lumot



ANDIJON VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI

Tashqi iqtisodiy faoliyat
va savdo statistikasi bo'limi:
74 224-80-57



TASHQI SAVDO AYLANMASI



Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

Viloyatda bu borada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, **2023-** yil yanvar-iyun oylarilarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) **2 330,3 mln AQSh** dollariga yetdi va **2022-** yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **231,4 mln AQSh** dollariga yoki **11,0 %** ga ko'paydi.



TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar-iyun, mln AQSh dollari)



Tashqi savdo aylanmasi

2023- y.: **2 330,3** - **11,0 %**

(2022- y.: **2 098,8**)



Saldo

2023- y.: - **1 138,5** (2022 y.: - **964,2**)



Eksport

2023- y.: **595,9** - **5,0 %**

(2022- y.: **567,3**)



Tovarlar: **589,6**



Xizmatlar: **6,3**



Import

2023- y.: **1 734,4** - **13,2 %**

(2022- y.: **1 531,5**)



Tovarlar: **1 693,9**



Xizmatlar: **40,5**











Tashqi savdo aylanmasi – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarining tashqi savdo statistikasi O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralari qo‘shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobini tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.



TSAda eksport hajmi **595,9** mln AQSh dollariga **0,5** % ga ko‘paydi) va import hajmi **1 734,4** mln AQSh dollariga (**13,2** % ga ko‘paydi) yetdi. Hisobot davrida **1 655,7** mln AQSh dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.



ANDIJON VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO‘LGAN DAVLATLAR (2023- yil yanvar-iyun, mln AQSh dollari)

Koreya Respublikasi TSA – 671,0 Eksport: 0,01 Import: 671,0  28,8 %	XXR TSA – 567,1 Eksport: 34,2 Import: 532,9  24,3 %	Qozog‘iston TSA – 261,8 Eksport: 257,1 Import: 4,7  11,2 %	Rossiya Federatsiya TSA – 143,0 Eksport: 93,6 Import: 49,4  6,1 %	Qirg‘iz Respublikasi TSA – 139,3 Eksport: 122,0 Import: 17,3  6,0 %
Braziliya TSA – 110,6 Eksport: 0,1 Import: 110,5  4,7 %	Meksika TSA – 94,6 Eksport: - Import: 94,6  4,1 %	AQSH TSA – 70,5 Eksport: 0,2 Import: 70,3  3,0 %	Turkiya TSA – 54,2 Eksport: 16,2 Import: 38,0  2,3 %	Hindiston TSA – 30,0 Eksport: 0,0004 Import: 30,0  1,3 %

Andijon viloyati jahonning **72** mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Koreya Respublikasida (**28,8** %), XXRda (**24,3** %), Qozog‘istonda (**11,2** %), Rossiya Federatsiyasida (**6,1** %), Qirg‘iz Respublikasida (**6,0**%) va Braziliyada (**4,7** %) qayd etilgan.



Shuningdek, qo‘shni davlatlar bilan o‘zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni iqtisodiy-ijtimoiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko‘rish mumkin.

Xususan, Qozog‘iston va Tojikiston kabi qo‘shni davlatlar bilan TSAda so‘nggi yillarda katta o‘zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so‘nggi uch yilda TSA Qozog‘istonda 1,5 barobarga oshdi.



TASHQI SAVDO PROFITSITI BO‘LGAN ASOSIY UCH DAVLAT (2023- yil yanvar-iyun mln AQSh dollari)



Qozog‘iston – 252,4



Qirg‘iz Respublikasi – 114,7



Tojikiston – 15,0























Tashqi iqtisodiy faoliyat bo‘yicha **20** ta yirik hamkor-davlatlar orasidan uchta davlatda ijobiy tashqi savdo balansi kuzatilgan. Xususan, Qozog‘iston, Qirg‘iz Respublikasi va Tojikiston davlatlari shular jumladandir. Qolgan **17** ta davlatlar bilan manfiy tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.



ANDIJON VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-iyun, mln AQSh dollari)

Davlatlar	2021- y.	2022- y.	2023- y.
Koreya Respublikasi	534,7	889,9	671,0
 <i>Eksport</i>	0,2	0,4	0,01
<i>Import</i>	534,5	889,5	671,0
XXR	193,0	356,2	567,1
 <i>Eksport</i>	46,0	48,7	34,2
<i>Import</i>	147,0	307,5	532,9
Qozog'iston	171,2	200,0	261,8
 <i>Eksport</i>	167,0	195,9	257,1
<i>Import</i>	4,2	4,1	4,7
Rossiya Federatsiyasi	100,9	183,4	143,0
 <i>Eksport</i>	33,2	61,1	93,6
<i>Import</i>	67,7	122,3	49,4
Qirg'iz Respublikasi	141,6	219,2	139,3
 <i>Eksport</i>	124,8	203,7	122,0
<i>Import</i>	16,8	15,5	17,3
Braziliya	7,0	12,7	110,6
 <i>Eksport</i>	-	0,1	0,1
<i>Import</i>	7,0	12,6	110,5
Meksika	1,9	2,8	94,6
 <i>Eksport</i>	-	0,00001	-
<i>Import</i>	1,9	2,8	94,6
AQSh	30,1	39,5	70,5
 <i>Eksport</i>	0,1	0,1	0,2
<i>Import</i>	30,0	39,4	70,3
Turkiya	43,2	57,6	54,2
 <i>Eksport</i>	12,5	24,8	16,2
<i>Import</i>	30,7	32,8	38,0
Hindiston	8,8	18,7	30,0
 <i>Eksport</i>	0,2	0,4	0,0004



Davlatlar		2021- y.	2022- y.	2023- y.
	Germaniya	6,4	9,9	24,3
	<i>Eksport</i>	0,4	0,5	0,7
	<i>Import</i>	6,0	9,4	23,6
	Belarus	2,1	3,7	17,2
	<i>Eksport</i>	0,8	1,2	13,4
	<i>Import</i>	1,3	2,5	3,8
	Tojikiston	1,8	2,1	15,4
	<i>Eksport</i>	0,7	1,4	15,2
	<i>Import</i>	1,1	0,7	0,2
	Slovakiya	3,5	5,7	13,7
	<i>Eksport</i>	-	0,001	-
	<i>Import</i>	3,5	5,7	13,7
	Ozarbayjon	2,6	6,8	12,6
	<i>Eksport</i>	1,8	6,6	12,6
	<i>Import</i>	0,8	0,2	-
	Italiya	7,1	9,7	11,9
	<i>Eksport</i>	1,9	2,5	3,6
	<i>Import</i>	5,2	7,2	8,3
	Chexiya	5,3	10,6	9,7
	<i>Eksport</i>	0,05	-	-
	<i>Import</i>	5,2	10,6	9,7
	Eron Islom Respublikasi	4,5	4,5	8,9
	<i>Eksport</i>	0,2	0,4	3,1
	<i>Import</i>	4,3	4,1	5,8
	Polsha	6,2	5,7	7,5
	<i>Eksport</i>	0,8	0,6	0,3
	<i>Import</i>	5,4	5,1	7,2
	Ukraina	6,8	2,4	5,6
	<i>Eksport</i>	5,3	1,8	3,0
	<i>Import</i>	1,5	0,6	2,6





ANDIJON VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI (2023- yil yanvar-iyun)*

	Hajm mln AQSh dollari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
Andijon viloyati	2 330,3	111,0	100,0
Andijon sh.	316,8	120,3	13,6
Xonobod sh.	55,0	147,6	2,4
<i>tumanlar:</i>			
Oltinko'l	36,5	207,7	1,6
Andijon	55,5	135,7	2,4
Baliqchi	28,2	88,5	1,2
Bo'ston	12,3	87,3	0,5
Buloqboshi	55,3	433,0	2,4
Jalaquduq	23,2	70,4	1,0
Izboskan	10,8	71,2	0,5
Ulug'nor	10,1	78,1	0,4
Qo'rg'ontepa	24,5	51,6	1,1
Asaka	1 553,5	111,3	66,7
Marhamat	15,0	103,2	0,6
Shahrixon	50,5	89,7	2,2
Paxtaobod	12,5	122,2	0,5
Xo'jaobod	69,6	73,7	3,0

Eng yuqori hajm,
mln AQSh dollari



Eng quyi hajm,
mln AQSh dollari




Viloyatda tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Asaka tumani **66,7 %** ulush bilan **1 553,5** mln AQSh dollarini, eng quyi ulushni esa Ulug'nor tumani **0,4 %** ulush bilan **10,1** mln AQSh dollarini tashkil etdi.

* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, shaharlar va tumanlari bo'yicha taqsimlanmagan



ANDIJON VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-iyun, mln AQSh dollari, ulushi, % da)



2023- yil yanvar-iyun oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi **26,2** % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2022- yilning mos davriga nisbatan **3,4** % ga kamayib, so'ngi uch yilda o'rtacha ko'rsatkichni qayd etdi.



Andijonning boshqa xorijiy davlatlar bilan TSAsi 2023- yilning yanvar-iyun oylarida 2022- yilning mos davriga nisbatan **3,4** % ga ko'paydi va jami TSAdagi ulushi **73,8** % ni tashkil etdi.

Andijon viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2023- yil yanvar-iyun holatiga ko'ra, **611,2** mln AQSh dollarini tashkil etdi. Shundan eksport **532,5** mln AQSh dollariga yetgan bo'lsa, import **78,7** mln AQSh dollari qiymatida qayd etildi.



ANDIJON VILOYATINING MDH DAVLATLARI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI (2023- yil yanvar-iyun, mln AQSh dollari)



Rossiya Federatsiyasi

TSA – 143,0
Eksport – 93,6
Import – 49,4



Qozog'iston

TSA – 261,8
Eksport – 257,1
Import – 4,7



Qirg'iz Respublikasi

TSA – 139,3
Eksport – 122,0
Import – 17,3



Ozərbayjon

TSA – 12,6
Eksport – 12,6
Import – -



Belarus Respublikasi

TSA – 17,2
Eksport – 13,4
Import – 3,8



Tojikiston

TSA – 15,4
Eksport – 15,2
Import – 0,2



Moldova Respublikasi

TSA – 1,2
Eksport – 0,8
Import – 0,4



Ukraina

TSA – 5,6
Eksport – 3,0
Import – 2,6



Turkmaniston

TSA – 3,6
Eksport – 3,4
Import – 0,2



Armaniston


TSA – 1,4
Eksport – 1,4
Import – -



Andijon viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining eng yuqori hajmlari Qozog'iston (**42,8** %), Rossiya Federatsiyasi (**23,4** %) hamda Qirg'iz Respublikasi (**22,8** %) davlatlari bilan qayd etildi.

ANDIJON VILOYATINING YEOIIGA A'ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar-iyun, mln AQSh dollari, ulushi, % da)



Andijon viloyatining Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi **562,7** mln AQSh dollarini tashkil etdi. Shundan, eksport hajmi **487,5** mln AQSh dollari, import hajmi esa **75,2** mln AQSh dollariga yetdi.

Shuni ta'kidlash lozimki, YEOIning a'zo davlatlari (Qozog'iston, Rossiya Federatsiyasi, Qirg'iz Respublikasi, Belarus va Armaniston) o'rtasida tovarlar va xizmatlar harakati, migrantlar harakatlanishi va kapital harakatining erkinligi ta'minlangan bo'lib, yagona bojxona tizimiga ega bo'lgan umumiy iqtisodiy hudud shakllantirilgan.




ANDIJON VILOYATI EKSPORTI



Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'sishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida eksportyorlar soni **329** taga yetdi va ular tomonidan **595,9** mln AQSh dollari qiymatidagi (2022- yilning mos davriga nisbatan **5,0** % ga ko'paydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.



XSST* BO'YICHA EKSPORT TARKIBI (2023- yil yanvar-iyun, ulushi, % da)



Andijon viloyatida tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (**keyingi o'rinlarda TIF TN**) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (**keyingi o'rinlarda – XSST**) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni **XSST** bo'yicha kodlashtirish, **TIF TN** va **XSST** o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



ANDIJON VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI

(yanvar-iyun, yillar kesimida)

XSST tarkibi	MIn AQSh dollari		O'zgarish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Jami eksport	568,3	595,9	140,5	105,0	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	19,0	19,0	115,1	100,3	3,3	3,2
Ichimliklar va tamaki	0,1	3,3	81,2	34,5 b.	0,0	0,6
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	1,9	2,4	37,0	127,9	0,3	0,4
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	9,2	0,5	440,1 b.	5,9	1,6	0,1
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,0	0,0	2,6 b.	30,7	0,0	0,0
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	3,6	11,2	4,0 b.	3,1 b.	0,6	1,9
Sanoat tovarlari	166,3	133,1	166,0	80,1	29,3	22,3
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	198,7	258,9	114,1	130,3	35,0	43,4
Turli xil tayyor buyumlar	163,6	161,1	156,7	98,5	28,8	27,0
Xizmatlar	5,0	6,3	193,1	126,1	0,9	1,1

Eksport tarkibida tovarlar ulushi **98,8 %** ni tashkil etib, ular mashinalar va transport asbob uskunalari (**43,4 %**), turli xil tayyor buyumlar (**27,0 %**), sanoat tovarlari (**22,3**), kimyoviy vositalar (1,9 %) va oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**3,2 %**) hissasiga to'g'ri kelmoqda.



ANDIJON VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI (2023- yil yanvar-iyun)

XSST bo'limi nomi	Ming AQSh dollari	2022- yilning mos davriga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Sabzavotlar va mevalar	18 255,9	102,5
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	413,0	68,6
Sut mahsulotlari va qush tuxumlari	211,1	41,8
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	119,2	6,5 b.
Ichimliklar va tamaki		
Ichimliklar	3 310,9	34,5 b.
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	1 748,8	117,7
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari, boshqa joyda tasniflanmagan	281,6	3,2 b.
Moy olinadigan urug'lar va moy olinadigan mevalar	225,8	99,4
56 bo'limga kiritilgandan tashqari o'gitlar uchun xomashyo va mineral xomashyo (ko'mir, neft va qimmatbaho toshlardan tashqari)	95,8	139,6
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	542,5	6,0
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar		
O'simlik moylari va yog'lari, xom, tozalangan yoki fraksiyalangan	0,2	31,8
Hayvonlar va o'simliklar moylari va yog'lari, qayta ishlangan; mumlar; texnik aralashmalar va preparatlar	-	0,0
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar		
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	10 186,0	8,9 b.
Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari; hojatxona preparatlari, polirovkalash va yuvish vositalari	323,8	2,7 b.
Noorganik kimyo moddalari	301,8	125,9
Birlamchi shaklda bo'lmagan plastmassalar	174,1	195,1


XSST bo'limi nomi	Ming AQSh dollari	2022-yilning mos davriga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari		
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	120 336,0	86,4
Qog'oz, karton va qog'oz massasi, qog'oz yoki kartondan tayyorlangan buyumlar	5 233,3	42,3
Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	2 922,0	35,8
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar, boshqa joyda tasniflanmagan	1 634,2	52,2
Mashinalar va transport asbob-uskunolari		
Avtomobillar (shu jumladan havo transporti vositalari)	169 548,9	138,8
Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar	77 323,9	113,1
Elektr mashinalari, apparatlar va asboblar, boshqa joyda tasniflanmagan, va ularning elektr qismlari (boshqa joyda tasniflanmagan elektr maishiy asboblarning elektr bo'lmagan qismlari ham)	5 267,2	89,7
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va asbob-uskunalar va ularning detallari, boshqa joyda tasniflanmagan	4 818,4	2,4 b.
Turli xil tayyor buyumlar		
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	149 050,0	100,4
Poyabzal	7 848,4	91,4
Yo'l anjomlari, sumkalar va shunga o'xshash konteynerlar	1 464,1	74,8
Har xil tayyor buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	1 385,9	70,7

Andijon tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kiradi: olib kirishda - tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda - tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.

2023- yilning yanvar-iyun oylarida MDH mamlakatlari 532,5 mln AQSh dollari qiymatidagi tovar va xizmatlar eksport qilinib, jami eksportning 89,4 % ini tashkil etdi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-iyun, mln AQSh dollari, ulushi, % da)



2023- yil yanvar-iyun oylarida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Qozog'iston, Qirg'iz Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, XXR, Turkiya, Tojikiston va Belarus kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi 92,6 % ni tashkil etdi.



VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2023- yil yanvar-iyun, % da)





ANDIJON VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI *(yanvar-iyun, yillar kesimida)*


Davlatlar	Mln AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		Egallab turgan o'rni	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Qozog'iston	195,9	257,1	117,3	131,2	2	1
Qirgiz Respublikasi	203,7	122,0	163,3	59,9	1	2
Rossiya Federatsiyasi	61,1	93,6	184,2	153,2	3	3
Xitoy	48,7	34,2	106,0	70,2	4	4
Turkiya	24,8	16,2	199,2	65,2	5	5
Tojikiston	1,4	15,2	2,1 b.	10,9 b.	11	6
Belarus	1,2	13,4	150,0	10,8 b.	13	7
Ozarbayjon	6,6	12,6	3,6 b.	192,3	7	8
Italiya	2,5	3,6	131,4	142,2	15	9
Turkmaniston	0,1	3,4	20,2	30,5 b.	8	10
Eron Islom Respublikasi	0,4	3,1	2,1 b.	8,2 b.	28	11
Ukraina	1,8	3,0	33,5	169,1	22	12
Litva	0,0	1,5	8,3	41,4 b.	10	13
Armeniya	0,0	1,4	147,9	39,8 b.	33	14
Bangladesh	0,0	0,8	92,8	22,1 b.	34	15
Moldova Respublikasi	2,1	0,8	91,1	38,6	32	16
Germaniya	0,6	0,7	157,3	131,5	9	17
Latviya	0,4	0,5	111,4	117,9	18	18
Polsha	0,6	0,3	77,2	56,1	21	19
Portugaliya	0,0	0,3	-	55,4 b.	17	20



ANDIJON VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI (2023- yil yanvar-iyun)*

	Hajm mln AQSh dollari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
Andijon viloyati	595,9	105,0	100,0
Andijon sh.	54,3	99,7	9,6
Xonobod sh.	15,8	85,3	3,3
<i>tumanlar:</i>			
Oltinko'l	25,3	196,0	2,3
Andijon	26,7	174,3	2,7
Baliqchi	26,4	113,3	4,1
Bo'ston	11,3	84,4	2,4
Buloqboshi	7,6	86,8	1,5
Jalaquduq	19,6	64,9	5,3
Izboskan	7,5	71,2	1,8
Ulug'nor	8,9	92,1	1,7
Qo'rg'ontepa	13,3	41,9	5,6
Asaka	287,7	129,9	39,0
Marhamat	7,6	80,7	1,7
Shahrixon	29,7	98,0	5,3
Paxtaobod	8,6	143,3	1,1
Xo'jaobod	44,6	63,4	12,4

Eng yuqori hajm,
mln AQSh dollari



Eng quyi hajm,
mln AQSh dollari



Viloyat eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Asaka tumani **48,3** % bilan **287,7** mln AQSh dollarini, eng quyi ulushni esa Izboskan tumani **1,3** % bilan **7,5** mln AQSh dollarini tashkil etdi.

* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport va safarlar bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, tuman va shaharlari bo'yicha taqsimlanmagan.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI



Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan mahsulotlar sifati va hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2023- yil yanvar-iyun oylarida **74,5** ming tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2022- yilning mos davriga nisbatan **17,7** ming tonnaga ko'paydi.









Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Qirg'iz Respublikasi (**59,9** %), Rossiya Federatsiyasi (**30,1** %), Qozog'iston (**6,6** %) , Latviya (**2,0** %) hamda Belarus (**0,9** %) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

2023- yil yanvar-iyun oylarida oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan **17,7 mln** AQSh dollari qiymatidagi meva-sabzavot eksport qilindi. Bu ko'rsatkich 2022- yilning mos davriga nisbatan **1,5** % ga kamaydi va jami eksportdagi ulushi **3,0** % ni tashkil etdi.







MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

(2023- yil yanvar-iyun, o'zgarish sur'atlari, qiymatga nisbatan)

<p>Uzum (quritilgan uzumni qo'shgan holda)</p> <p>0,5 mln. AQSH dollari</p> <p>1,0 ming tonna</p>  <p>↑ 81,0 %</p>	<p>Karam</p> <p>1,3 mln. AQSH dollari</p> <p>6,0 ming tonna</p>  <p>↑ 80,2 %</p>	<p>Gilos</p> <p>0,6 mln. AQSH dollari</p> <p>1,0 ming tonna</p>  <p>↓ 36,6 %</p>	<p>Pomidor</p> <p>1,8 mln. AQSH dollari</p> <p>3,3 ming tonna</p>  <p>↓ 84,5 %</p>
<p>Shaftoli</p> <p>0,4 mln. AQSH dollari</p> <p>0,6 ming tonna</p>  <p>↑ 67,4 %</p>	<p>Bodring</p> <p>1,3 mln. AQSH dollari</p> <p>2,0 ming tonna</p>  <p>↑ 2,8 b.</p>	<p>Qovun va tarvuz</p> <p>3,0 mln. AQSH dollari</p> <p>19,5 ming tonna</p>  <p>↑ 148,8</p>	<p>Piyoz</p> <p>1,8 mln. AQSH dollari</p> <p>10,8 ming tonna</p>  <p>↑ 113,6 %</p>



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (2023- yil yanvar-iyun)

Davlatlar	Ming tonna	Ming AQSh dollari	Ulushi, % da *
 Qirg'iz Respublikasi	55 002,3	10 935,5	59,9
 Rossiya Federatsiyasi	7 016,7	5 496,7	30,1
 Qozog'iston	12 075,3	1 199,1	6,6
 Latviya	864,9	370,5	2,0
 Belarus	74,5	160,8	0,9
 Turkiya	36,0	56,7	0,3
 Moldova Respublikasi	41,7	15,2	0,1
 Germaniya	20,0	14,0	0,1
 Mongoliya	14,7	7,4	0,04

* qiymat ifodasidan



2023- yil yanvar-iyun oylarida meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta hajmi Qirg'iz Respublikasiga to'g'ri keldi (meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining **59,9** %), bu ko'rsatkich Rossiya Federatsiyasiga eksport hajmidan **2,0** barobar ko'p.



TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI



So‘nggi yillarda yengil sanoatda yuqori qo‘shilgan qiymatdagi mahsulotlar ishlab chiqarish rivojlanib bormoqda. Yengil sanoat iqtisodiy jihatdan viloyat uchun muhim soha bo‘lgani holda, aholi bandligining yuqori darajasini, shuningdek, sanoat salohiyatiga hamda davlatimizning xalqaro nufuziga hissa qo‘shilishini ta‘minlaydi.

To‘qimachilik mahsulotlarining eksporti hajmlarining o‘sishi bevosita paxta xomashyosini o‘rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo‘shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasi sifatida qarash mumkin.








Xususan, 2023- yil yanvar-iyun oylari yakuni bo‘yicha **100,2 mln** AQSh dollarilik to‘qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning **33,6 %** ini tashkil etib, o‘tgan yilga nisbatan **30,3 %** ga kайyundi.

Eksport qilingan to‘qimachilik mahsulotlari tarkibida tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari (**74,1 %**), naqshli mato (**14,6 %**) asosiy ulushni egallagan. Yil boshidan **233** turdagi to‘qimachilik mahsulotlari dunyoning **19** ta davlatiga eksport qilindi.


TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI

(yanvar-iyun, ming AQSh dollari)



	2022-yil	2023-yil
Jami:	287 415,9	200 203,3
 Tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari	148 141,8	148 382,2
 Naqshli mato	24 873,5	29 140,8
 Boshqa to‘qimachilik mahsulotlari	6 201,5	4 761,7
 Paxtadan yigirilgan ip	89 345,0	0,0
 Gilamlar	4 075,1	6 003,6
 Paxtadan gazlamalar	4 381,5	3 771,7
 Paxta mahsulotlari	2 807,7	1 451,7

DAVLATLAR KESIMIDA TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI (yanvar-iyun, ming AQSh dollari)

	2022- yil	2023- yil	O‘shish sur‘ati, % da
 Kirg‘iz Respublikasi	147,3	85,4	58,0
 Rossiya Federatsiyasi	49,0	64,0	130,8
 Tojikiston	0,8	12,7	16,2 b.
 Belarus	1,0	12,5	12,6 b.
 Qozog‘iston	5,7	10,5	184,1
 Italiya	2,5	3,6	142,2
 Ukraina	1,7	2,7	164,8
 Ozarbayjon	0,6	2,6	4,1 b.
 Litva	-	1,4	-
 XXR	48,6	1,3	2,7
 Moldova Respublikasi	2,0	0,8	38,2
 Turkiya	24,1	0,7	3,1
 Armeniya	0,0	0,5	15,3 b.
 Germaniya	0,5	0,5	102,0
 Eron Islom Respublikasi	0,3	0,4	100,5
 Boshqalar	3 112,6	471,9	15,2




Viloyatning to‘qimachilik sanoatini diversifikatsiya qilish va tayyor mahsulotlar eksportini rag‘batlantirish borasidagi amaliy ishlar natijasida mamlakatimizning ushbu sohadagi salohiyati va hamkor davlatlardagi to‘qimachilik bozorida ulushi oshib bormoqda.

To‘qimachilik mahsulotlarining eng katta ulushi Qirg‘iz Respublikasi (**42,7 % – 85,4 mln AQSh dollari**) va Rossiya Federatsiyasi (**32,0 % – 64,0 mln AQSh dollari**) davlatlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

Mamlakatimizda yangi ishlab chiqarish texnologiyalari va zamonaviy uskunalardan keng foydalanish, sohada sifat menejmenti tizimining joriy etilishi natijasida mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu, o'z navbatida, tayyor mahsulotlarga jahon bozorlarida o'z o'rnini topish imkonini beradi.



XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI (2023- yil yanvar-iyun ulushi, % da)



Xizmatlar eksporti hajmi **6 325,9** mln AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining **1,1** % ini tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **26,1** % ga ko'paydi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish (**45,4** %), moliyaviy xizmatlar (**37,9** %), transport xizmatlar (**11,2** %) va safarlar (turizm) (**5,5** %) hissasiga to'g'ri kelgan.



ANDIJON VILOYATINING IMPORTI




2023- yilning yanvar-iyun oylarida import hajmi **1 734,4** mln AQSh dollarini va 2022- yilning mos davriga nisbatan **13,2 %** ni tashkil etdi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (**65,6 %**), sanoat tovarlari (**17,9 %**) hamda kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (**8,2 %**) hisobiga to'g'ri keldi.



XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI

(2023- yil yanvar-iyun, ulushi, % da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2023- yilning yanvar-iyun oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **238,7** mln AQSh dollariga ko'paydi va **1 693,8** mln AQSh dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa **40,5** mln AQSh dollariga yetdi.



ANDIJON VILOYATINING XSST BO'YICHA IMPORTI TARKIBI (yanvar-iyun, yillar kesimida)

XSST tarkibi	MIn AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Jami import	1 531,5	1 734,4	167,8	113,2	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	9,5	11,0	95,8	115,5	0,6	0,6
Ichimliklar va tamaki	0,1	0,2	47,6 b.	159,1	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	10,0	11,3	113,1	113,7	0,7	0,7
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	5,7	13,9	106,3	2,4 b.	0,4	0,8
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,0	2,1	1,5	296,8 b.	0,0	0,1
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	93,6	142,6	150,6	152,4	6,1	8,2
Sanoat tovarlari	329,1	310,6	189,5	94,4	21,5	17,9
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	951,3	1137,6	170,8	119,6	62,1	65,6
Turli xil tayyor buyumlar	55,9	64,6	134,7	115,6	3,6	3,7
Xizmatlar	76,3	40,5	141,8	53,1	5,0	2,4



XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2023- yil yanvar-iyun)

XSST bo'limi nomi	Ming AQSh dollari	2022- yilga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	4 035,8	2,3 b.
Sabzavotlar va mevalar	2 050,9	2,0 b.
Sut mahsulotlari va qush tuxumlari	1 356,9	2,1 b.
Tirik hayvonlar, 03 bo'limga kiritilgan hayvonlardan tashqari	1 222,6	32,1
Ichimliklar va tamaki		
Ichimliklar	177,2	159,1
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		
Probka va yog'och-taxtalar	3 539,3	120,4
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	3 539,3	116,1
Tabiiy kauchuk (sun'iy va regeneratsiya qilingan rezina ham)	2 874,4	193,7
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari, boshqa joyda tasniflanmagan	911,0	76,1
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar		
Ko'mir, koks va briketlar	7 941,6	2,2 b.
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	5 766,7	2,8 b.
Tabiiy yoki sun'iy gaz	184,8	12,8 b.
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar		
O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	1 975,7	289,6 b.
Hayvonlar va o'simliklar moylari va yog'lari, qayta ishlangan; hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan mumlar	140,0	455,9 b.
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar		
Noorganik kimyo moddalari	48 277,9	161,5
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	29 144,6	2,6 b.
Birlamchi shakldagi plastmassalar	27 030,2	107,0
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	13 598,2	125,1


XSST bo'limi nomi	Ming AQSh dollari	2022- yilga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari		
Rezina buyumlari, boshqa joyda tasniflanmagan	89 908,4	142,9
Cho'yan va po'lat	87 570,8	70,1
Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	77 264,5	83,4
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	34 032,9	114,8
Mashinalar va transport asbob-uskunolari		
Avtomobillar (havo podushkalaridagi transport vositalari ham)	741 942,3	103,1
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va asbob-uskunalar va ularning detallari, boshqa joyda tasniflanmagan	117 583,6	109,3
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	97 377,2	164,0
Elektr mashinalari, apparatlar va asboblari, boshqa joyda tasniflanmagan, va ularning elektr qismlari (boshqa joyda tasniflanmagan elektr maishiy asboblarning elektr bo'lmagan qismlari ham)	74 692,1	2,1 b.
Turli xil tayyor buyumlar		
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari, boshqa joyda tasniflanmagan	31 727,0	132,3
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga o'xshash tikilgan mebel	18 474,2	83,1
Har xil tayyor buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	9 296,2	140,5
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya, isitish va yoritish uskunolari uchun armatura va mahkamlash moslamalari, boshqa joyda tasniflanmagan	3 041,4	2,8 b.



2023- yil yanvar-iyun natijalariga ko'ra MDH mamlakatlaridan import ulushi **4,5 %** ni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **5,1 %** ga kamaydi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-iyun, mln AQSh dollari, ulushi, % da)



2023- yil yanvar-iyun oylarida Andijon viloyati **63** ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yetti yirik hamkor davlatlar (Koreya Respublikasi, XXR, Braziliya, Meksika, AQSh, Rossiya Federatsiyasi va Turkiya) jami importning **90,3 %** qismini tashkil etdi.



VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2023- yil yanvar-iyun, % da)





ANDIJON VILOYATININGASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-iyun, yillar kesimida)

Davlatlar	Mln AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmdagi o'rni	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Koreya Respublikasi	889,5	671,0	166,4	75,4	1	1
Xitoy	307,5	532,9	2,1 b.	173,3	2	2
Braziliya	12,6	110,4	179,7	8,8 b.	9	3
Meksika	2,8	94,6	152,2	33,6 b.	18	4
AQSh	39,3	70,2	131,3	178,5	4	5
Rossiya Federatsiyasi	122,3	49,4	180,6	40,4	3	6
Turkiya	32,8	38,0	106,5	115,9	5	7
Hindiston	18,3	30,0	2,1 b.	163,8	6	8
Germaniya	9,4	23,6	155,1	2,5 b.	11	9
Qirg'iziston	15,5	17,3	92,1	111,7	8	10
Slovakiya	5,7	13,7	163,5	2,4 b.	13	11
Chexiya	10,6	9,7	2,0 b.	91,0	10	12
Italiya	7,2	8,3	140,1	115,8	12	13
Polsha	5,1	7,2	94,0	142,3	14	14
Tailand	4,9	6,0	47,7	122,9	15	15
Eron Islom Respublikasi	4,2	5,8	97,4	139,1	16	16
Vetnam	0,1	5,2	23,4	44,7 b.	47	17
Qozog'iston	4,1	4,7	96,6	115,4	17	18
Tayvan	2,3	4,1	4,7 b.	179,7	20	19
Belarus	2,5	3,8	195,8	153,7	19	20



ANDIJON VILOYATIINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI

(2023- yil yanvar-iyun)

	Hajm mln AQSh dollari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
Andijon viloyati	1 734,4	113,2	100,0
Andijon sh.	262,4	125,7	15,1
Xonobod sh.	39,2	208,8	2,3
<i>tumanlar:</i>			
Oltinko'l	11,2	240,1	0,6
Andijon	28,8	112,6	1,7
Baliqchi	1,9	21,7	0,1
Bo'ston	1,0	144,1	0,1
Buloqboshi	47,7	1 172,7	2,8
Jalaquduq	3,6	133,6	0,2
Izboskan	3,3	71,2	0,2
Ulug'nor	1,2	36,4	0,1
Qo'rg'ontepa	11,2	71,2	0,6
Asaka	1 265,8	107,8	73,0
Marhamat	7,4	144,8	0,4
Shahrixon	20,8	80,1	1,2
Paxtaobod	3,8	91,6	0,2
Xo'jaobod	25,0	103,7	1,4

Eng yuqori hajm,
mln AQSh dollari




Eng quyi hajm,
mln AQSh dollari



Viloyat importi tarkibida eng yuqori ulushni Asaka tumani **73,0** % bilan **1 265,8** mln AQSh dollarini, eng quyi ulushni esa Bo'ston tumani **0,1** % bilan **1,0** mln AQSh dollarini tashkil etdi.



XIZMATLAR IMPORTI TARKIBI (2023- yil yanvar-iyun, ulushi, % da)



2023- yilning yanvar-iyun oylari yakuni bilan xizmatlar importi hajmi **40,5** mln AQSh dollarini yoki jami import hajmining **2,3** % ini tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan **46,9** % ga kamaydi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi Intellectual mulkdan foydalanganlik uchun to'lovlar, boshqa joyda tasniflanmagan (**73,6** %), amaliy xizmatlar (**15,5** %) ga tegishli bo'ldi.



MASHINALAR VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALAR IMPORTI




Viloyatda investitsiya muhitining yaxshilanib borayotgani sari va ushbu sohada amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida mashina va asbob-uskunalar importining oshishi tabiiy hol.

Jumladan, 2023- yil yanvar-iyun oylarida import tarkibida mashinalar va transport asbob-uskunalari hajmi **1 137,6** mln AQSh dollarini tashkil etib, 2022- yilning shu davriga nisbatan **19,6 %** ga ko'paydi va importning umumiy hajmidagi ulushi **65,6 %** ga yetdi.



MASHINA VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALAR IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR (2023- yil yanvar-iyun)




2023- yil yanvar-iyun oylarida mashina va transport asbob-uskunalar importi hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan **186,4** mln AQSh dollariga ko'paydi. Ushbu tovarlarni Andijon viloyatiga yetkazib berishning asosiy qismi Koreya Respublikasi – **476,8** mln AQSh dollari (**41,9 %**), XXR - **344,3** mln AQSh dollari (**30,3 %**) va Meksika – **80,8** mln AQSh dollari (**7,1 %**) kabi davlatlarga to'g'ri keldi.



SANOAT MAHSULOTLARI IMPORTI




2023- yil yanvar-iyun oylarida import tarkibida sanoat mahsulotlari tovarlari hajmi **310,6** mln AQSh dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **5,6** % ga kайundi hamda importning umumiy hajmidagi ulushi **17,9** % ga yetdi.



SANOAT MAHSULOTLARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR

(2023- yil yanvar-iyun, ulushi, % da)



Sanoat mahsulotlari importi asosan rezina buyumlari (**89,9** mln AQSh dollari), cho'yan yoki legirlanmagan po'lat (**87,6** mln AQSh dollari), metallardan tayyorlangan buyumlar (**77,3** mln AQSh dollari), to'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar (**34,0** mln AQSh dollari) va boshqalardan tashkil topgan.